

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI KLASTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Jonibekov Zohirjon Davronbek o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

E-mail: zohirjonjanibekov@gmail.com

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishining eng muhim yo'nalishi- sanoatni yuksaltirish bo'lib, unda yuqori o'rinlardan birini paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki, paxta-to'qimachilik sanoatining rivojlantirish uchun muhim omil hisoblangan xom-ashyo bazasi va zaruriy infratuzilmalarning mavjudligidir. Ayniqsa, Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsulotining salmoqli qismini yengil sanoatga tegishli bo'lgan korxonalar tomonidan yetishtirib beriladi.

Namangan viloyatining ishlab chiqarish sohasida yangi tarmoqlar paydo bo'lishi bilan birga, sanoat tarmog'ini xususan, paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnologik yangilash, mavjud mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2016 yili viloyatda yetishtirilgan paxta xom-ashyosini 31,5 foizi qayta ishlangan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 100 foizni tashkil etdi.


Yengil sanoatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri-yangi zamonaviy paxta-to'qimachilik sanoati korxonalarini barpo etishdir. Bu yo'nalishda 2025 yilga mo'ljallangan dasturlarda bir qator yengil sanoat klasterlarini tashkil etish belgilangan. Shu asosida viloyatning barcha tumanlarida yetishtirilayotgan paxta xom-ashyosini qayta ishlashni chuqurlashtirish va aholiga zarur hisoblangan yengil sanoat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birgalikda xorijiy mamlakatlarga raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilish ham belgilab qo'yilgan.

Viloyat paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning ikkinchi muhim yo'nalishi-bu sanoat korxonalarini va tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga hamda eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishdan iboratdir. Bunga asosan paxta-to'qimachilik sanoatining turli bo'g'inlarini mutanosib ravishda rivojlantirish, bugungi kunda talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali erishiladi. Masalan bugungi kunda paxta-to'qimachilik sanoatining trikotaj mahsulotlariga talab yuqoriligini hisobga olib, bu yo'nalishni jadalroq sur'atda rivojlantirish, ip-kalava ishlab chiqarish korxonalarida qo'shimcha ravishda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradigan liniyalarni ishga solish orqali paxta xom-ashyosini chuqur qayta ishlash yo'lga qo'yiladi.

Paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan yana biri,

korxonalardagi mavjud imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni yo'lga quyish orqali mehnat unumdorligini oshirishga va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini ma'lum darajada pasaytirishdir. Bu bilan birgalikda mahsulot sifatini yaxshilash orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. 1-chizmada paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari keltirilgan.

Chizma-1



1-chizma. Paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari.

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizning sanoat tarmoqlari ichida eng katta qo'shimcha qiymat yaratish bo'yicha paxta-to'qimachilik sanoati alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, to'qimachilik sanoati aholi bandligini ta'minlashning yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasining o'zida deyarli 7000 ta korxonada 200 mingdan ortiq ishchi-xodimlar mehnat qilayotganligi yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, paxta-to'qimachilik sanoati Namangan viloyati sanoatining eng rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Viloyat uchun bu tarmoqni yanada rivojlantirishning muhimligi, birinchi navbatda mahalliy xom-ashyo bazasining mavjudligi, shuningdek, nisbatan yuqori mehnat sig'imliligi bilan bog'liq. Bu esa bandlik va aholining turmush darajasini oshirish kabi muammolar yechimini topishi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bo'lgani kabi Namangan viloyatida ham yangi ishlab chiqarish munosabatlari qaror topayotgan bir sharoitda paxta-to'qimachilik sanoati xom-ashyosini yetishtirib beruvchi paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Paxta ekiladigan yer maydonlari qisqarib borsada, hosildorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Namangan viloyatida paxta xom-ashyosini yetishtirish
dinamikasi, ming tonna***

T.r	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Paxta ekin maydoni, ga	65606	63406	63406	63406	63406
2.	Paxta hosildorligi, s/ga	24,5	30,7	33,4	33,8	35,1
3.	Paxta yalpi hosili, ming tonna	160746	194559	211469	213827	222477

*Manbaa: Namangan viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi statistik ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018-2022 yillar oralig'ida viloyatda paxta yetishtiriladigan maydonlar qisqarib borganligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2018 yilda viloyatning 65606 gektar ekin maydonida 160746 tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 2022 yilda mos ravishda 63406 gektar maydonda 222477 tonna paxta hosili yetishtirilgan. 2018 yildagi ko'rsatkichlarga asosan paxta maydonlari hosildorligini pasayib ketishi va hosildorligi past yerlarga paxta ekilmaganligidir. Shuningdek, viloyatning tog' oldi tumanlari bo'lgan Chortoq va Chust tumanlarida paxta ekin maydonlari qisqartirilishi natijasida yalpi hosil miqdori keskin kamaygan, shuningdek, Namangan tumanining bir qismini Namangan shahriga qo'shilishi hisobiga paxta ekin maydonini qisqarishi natijasida yalpi hosil miqdori kamayganligini ko'rish mumkin.

Namangan viloyatida klaster tizimini joriy etilmasdan oldin paxta hosildorligi 24,0 syentnerni tashkil etgan bo'lsa, tarmoqqa klaster tizimini tadbiiq etilishi natijasida o'rtacha hosildorlik 10,1 syentnerga ko'tarilib, 2022 yilda 35,1 syentnerni tashkil etdi. Natijada solishtirilayotgan yilga nisbatan 27 ming tonna qo'shimcha paxta xom-ashyosi yig'ishtirib olindi. Buning asosiy sababi klaster tizimidagi tadbirkorlik sub'yektlarini yuqori manfaatdorligini uzviyligidir. Chunki, paxta xom-ashyosiga buyurtmachi ham, uni yetishtiruvchi va qayta ishlovchi, iste'molchilarga yetkazib beruvchi ham klaster tizimining o'zida mujasamlashadi.

2017 yilda viloyatda yetishtirilgan paxta xom-ashyosini 34,7 foizi qayta ishlangan edi. Paxtachilik majmuasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi viloyatda ham paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Natijada 2022 yilda yetishtirilgan paxta xom-ashyosining 100 foizi viloyatning paxta-to'qimachilik klasterlarida qayta ishlanishiga erishildi.

Viloyatda dastlabki paxta-to'qimachilik klasteri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 31 martdagi 253-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan. Aynan ushbu qaror bilan viloyatda ilk paxta-

to'qimachilik klasteri-"Textile Finance Namangan" MCHJ tashkil etildi. Mazkur jamiyatga sinov-tajriba tarzida viloyatning Uchqo'rg'on tumani tanlanib, maxsus qaror bilan biriktirib berildi. Dastlabki yillardanoq klaster usulida ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, paxta xom-ashyosini sotishni kafolatlash, ishlab chiqaruvchilar mehnatini rag'batlantirish imkoniyatlari yuzaga keldi.

2018 yilning o'zida klaster korxonasi tomonidan 5 ta zamonaviy chigit ekish seyalkalari olib kelindi. 9436 gektar yer maydoniga chigit ekilib, o'z vaqtida agrotexnika qoidalari asosida ishlov berildi va 26524 tonna paxta xom-ashyosi yetishtirildi, hosildorlik o'rtacha 28,1 syentnerni tashkil etdi.

2019 yilda viloyatda yana 4 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi. Ularga paxta xom-ashyosini yetishtirib beruvchi 8 ta tumandagi 55182 gektar maydonda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari biriktirildi.

"Art Soft tex cluster" fermer xo'jaligi tomonidan viloyatning Mingbuloq va Pop tumanlaridagi 419 ta fermer xo'jaliklaridagi 23218 gektar, "Toshbuloq Teks" MCHJ QK tomonidan Namangan tumanida 117 ta fermer xo'jaliklaridagi 5550 gektar, "Uchkurgan Textile" QK MCHJga Uychi tumanidagi 151 ta fermer xo'jaliklaridagi 5869 gektar, "Namangan To'qimachi" MCHJga Chortoq tumanidagi 45 ta fermer xo'jaliklarining 1067 gektar va Chust tumanidagi 228 ta fermer xo'jaliklarining 4004 gektar yer maydonlarida paxta xom-ashyosini yetishtirish belgilandi. Shuningdek, "Iftixor Kiyim Sanoat" MCHJga Norin tumanidagi 143 ta fermer xo'jaliklaridagi 6038 gektar yer maydoni biriktirildi. 2020 yilda yana 2 ta tumandagi, ya'ni Kosonsoy tumanidagi 172 ta fermer xo'jaliklarining 3955 gektar yer maydoni "Namangan Paxta Teks" MCHJga, To'raqo'rg'on tumanidagi 91 ta fermer xo'jaliklarining 4269 gektar maydoni "Namangan To'qimachi" MCHJga biriktirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 19 sentyabrdagi 744-sonli qarori bilan 2020 yilda viloyatning 10 ta tumanidagi 63406 gektar yer maydonida paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi barcha fermer xo'jaliklari to'laligicha klaster korxonalariga biriktirib berildi. 2022 yilga kelib viloyatda 7 ta paxta-to'qimachilik klaster korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda va ular quyidagilar: "Art Soft Holding" MCHJ, "Namangan To'qimachi" MCHJ, "Toshbuloq Teks" MCHJ QK, "Namangan Paxta Teks" MCHJ, "Textile Finance Namangan" MCHJ, "Uchkurgan Textile" QK MCHJ, "Iftixor Kiyim Sanoat" MCHJ.

Namangan viloyatida tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasterlari o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

1). Paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishning strategik va ustivor yo'nalishlarini belgilash hamda muvofiqlashtirishni samarali tizimlari va usullarini joriy etish;

2). Xorijiy mamlakatlar va korxonalar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va sarmoyaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

3). Paxta-to'qimachilik mahsulotlariga ichki va xorij bozorlaridagi talab va taklifni muntazam o'rganib borish asosida raqobat strategiyasini belgilash;

4). Klaster tarkibidagi tadbirkorlik korxonalari faoliyatiga yangi texnologiyalar va menejmentning ilg'or usullarini joriy etish;

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, klasterlar-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona bir zanjirga birlashtiruvchi, yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq hududlarida infratuzilma majmuasini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omilidir. Shuningdek, klaster tizimidagi tadbirkorlik sub'yektlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilashga, ekologik sofliqini ta'minlaydigan xo'jalik sub'yektlari bo'lib hisoblanadi.

Klasterlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jaryonlarida ularni sifati buzilishining ham oldi olinadi hamda bu jaryonlarga xizmat qiladigan infratuzilmalar tizimi shakllanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi "Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop tumanlarida agrosanoat klasterlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 736-sonli qaroriga asosan "Art soft Holding" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad Namangan viloyatining agrar tarmog'ini yanada rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni keng jalb qilish, ilg'or texnologiyalarga asoalangan infratuzilmalarni yaratish, iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirish, yagona texnologik zanjirga biriktirilgan korxonalar majmuini tashkil etish orqali viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jalgi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va tarmoqda mehnat unumdorligini oshirishdir.

Namangan viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarining bosh maqsadi zamonaviy to'qimachilik sanoatini shakllantirish, paxta xom-ashyosini qayta ishlash, chuqur qayta ishlovchi korxonalar bilan paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining uzviy bog'liqligini ta'minlash, ushbu jarayonlarga xorijiy investisiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, klaster tizimida mehnat unumdorligini va ish haqini oshirish hisoblanadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni zaruriy resurslar bilan ta'minlash, ta'lim va innovasion yo'nalishda qo'llab-quvvatlash va boshqa butlovchi qismlarni yetkazib beruvchi bir qator firmalar, o'quv va innovasion ilmiy markazlar bilan o'zaro integratsiya asosida faoliyat yuritishi zarurdir.

Klasterlarning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

-tuproq unumdorligini oshirish, ekin yerlaridan oqilona hamda samarali

foydalanish va bu borada chora-tadbirlar belgilash, uni amalga oshirish;

-ilm fanning ilg'or yutuqlarini, paxta xom-ashyosi, boshqoli don va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning zamonaviy usullarini, ilg'or innovasion agrotexnika hamda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish;

-to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb etgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda chuqur qayta ishlashning samarali usullari va texnologiyalarini qo'llash;

-xom-ashyoni chuqur qayta ishlash orqali raqobatbardosh sifatli eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish;

-issiqxona komplekslarini rivojlantirish;

-logistika xizmatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

-ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, seleksiya hamda urug'chilik yo'nalishida yangi navlarni va duragay urug'larni yaratish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish.

Klaster zanjirining so'nggi bo'g'ini-iste'mol bozori bo'lib hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor xorij bozoriga qaratilishi lozim. Chunki, jahon to'qimachilik bozorida o'zbek milliy mahsulotlari salmog'ini ko'paytirish hamda raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor beriladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir etadi:

- *Tabiiy omillar*-hududning iqlim sharoiti, relyefi, geografik joylashuvi, tuproq tuzilishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, yer usti va osti zahiralari, yer maydoni zahiralari, mineral xom-ashyo zahiralari, ekologik vaziyat.

- *Iqtisodiy omillar*-ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, bozor infratuzilmasi, investision faollik, aholi va mehnat resurslari soni, ichki talab, innovatsiya, boshqaruv tizimi, mahalliy byudjet va hokazolar.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini yanada rivojlantirish va uning viloyatda yaratilayotgan yalpi hududiy mahsulotdagi hissasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti xo'jalik yuritishning samarali yo'llaridan foydalanishni talab etadi. Bu esa turli materiallar, xom-ashyo va boshqa iqtisodiy resurslardan tejab-tergab foydalanishni, mavjud texnika va asbob-uskunalaridan unumli foydalanishni, xodimlarni mehnat unumdorliklarini oshirishni, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni kamaytirishni pirovardida korxona ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish samaradoligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir etadi:

➤ Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va uning natijalarini zudlik bilan ishlab chiqarishga joriy etish;

- Ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;
- Xodimlarni rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish;
- Mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish, arzon sifatli xom-ashyo va energiya turlarini, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi hosildor navlarini, xususan paxta urug'chiligida hosildor navlarni topib, ishlab chiqarishda foydalanish;
- Xodimlar bilim saviyasini, kasbiy malakasini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislarni tayyorlash;

Ma'lumki, paxta-to'qimachilik klasterlarini barqaror ishlashi va rivojlanishi paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar faoliyatiga bevosita bog'liq. Shuni hisobga olgan holda paxtachilikni rivojlantirish va uni iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi quidagi omillar tizimini keltirish mumkin.

Namangan viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini baholashda va iqtisodiy samaradorlik darajasini aniqlashda quyidagi omilli ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

❖ Moliyaviy omillar bo'yicha:

-klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar foydasini ko'paytirish-sof foyda;

-korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish-sotilgan mahsulotlar hajmida xarajatlarni hissasi, 1 so'm sotilgan mahsulot uchun sraflangan xarajatlar. Mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari-bu korxonaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan omillar uchun sarflangan mablag'larning pulda aks ettirilishidir. Ular mahsulot tannarxi ko'rsatkichida namoyon bo'lib, barcha moddiy xarajatlar, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, mehnatga haq to'lash xarajatlarning puldagi ifodasidir.

-paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlarini milliy va jahon to'qimachilik bozoridagi hissasini ortishi va mahsulot sotishdan olinadigan daromad miqdori.

❖ Ichki va tashqi bozordagi xaridorlar omili bo'yicha:

-paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sotilgan tovar mahsulotlari miqdori va undan olinadigan daromad miqdori.

❖ Paxta-to'qimachilik klasterlarida ichki ishbilarmonlik muhiti:

-klasterlar tomonidan zamonaviy va yangi asbob-uskunalar sotib olish - shuningdek, asosiy kapitalning balans qiymati;

-korxona xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari tizimini joriy etish- ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida operasion xarajatlar hissasi;

-korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibi va assortimenti-mahsulot turlarini yangilash holati;

❖ Paxta-to'qimachilik klasterlarida ta'lim va kadrlar salohiyatini oshirish;

-klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalardagi mavjud mehnat jamoalarini saqlab qolish-ishchi xodimlar soni;

-korxonada mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash-1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi va unga o'rtacha ish haqi miqdorini mutanosibligi;

-korxonada mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning o'z ishidan qoniqish darajasini oshirish-ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan salbiy holatlar oldini olish;

Bugungi kunda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlanishiga va ularni iqtisodiy samaradorlikka erishishlariga ta'sir etuvchi yuqoridagi omillarni e'tiborga olgan holda faoliyati yo'lga qo'yilgan. Xususan, Namangan viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish, paxta xom-ashyosini yetishtirish va uni chuqur qayta ishlash asosida tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, uni milliy va jahon bozorlarida sotish imkoniyatlari yaratildi. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini yaratib, aholini muntazam daromad olishlarini ta'minlamoqda. Bularni barchasi paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish, rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikka erishishiga ta'sir etuvchi omillarni aniq belgilanganligini va ularni ilmiy hamda iqtisodiy jihatidan aniq asoslab berilganligidir.

Bugungi kunda klasterlarni tashkil etish bo'yicha davlat tomonidan barcha huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda, shu jumladan Namangan viloyatida paxta xom-ashyosini yetishtirish va uni qayta ishlash bo'yicha faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari yetarli salohiyatga ega. Mazkur xo'jalik yurituvchi sub'yektlari faoliyatini uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud va buni klaster modeli asosida amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 25 yanvar №18 (7521)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil 12 sentyabr kuni davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish ma'lumotlari. Xalq so'zi gazetasi. 2019 yil 13 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. "Klasterlar rivoji uchun imkoniyatlar kengaytiriladi.". "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №215 son., 2021 yil 28 oktyabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrigi. "Xalq so'zi" gazetasi 2021 yil 12 dekabr
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 4 dekabrda 733-sonli "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori.
6. Namangan viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining ma'lumotlari. 2022 yil.